



O‘zbek She‘riyatida Bag‘ishlov She‘rlar Poetikasi

Bahronova Dilnoza Hakimovna,

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek she‘riyatida bag‘ishlov she‘rlar poetikasi, ayniqsa, uning mustaqillik davri she‘riyatidagi o‘rni tahlil qilinib, bag‘ishlov she‘rlarning janriy xususiyatlari, badiiy-estetik vazifasi hamda poetik tafakkurdagi o‘rni Erkin Vohidov ijodi misolida yoritilgan. Shoirning “Ona tilim o‘lmaydi” she‘ri asosida talmeh, murojaat, takror, drammatizm kabi badiiy vositalarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Maqolada ona tiliga sadoqat, milliy g‘urur va ma‘naviy qadriyatlarining poetik ifodasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: bag‘ishlov she‘r, poetika, Erkin Vohidov, ona tili, talmeh, drammatizm, poetik tafakkur, milliy g‘urur, badiiy obraz, mustaqillik davri she‘riyati.

Аннотация: В данной статье анализируется поэтика посвящённых стихотворений в узбекской поэзии, а также их значение в литературе периода независимости. Жанровые особенности посвящений, их художественно-эстетическая функция и место в поэтическом мышлении раскрываются на примере творчества Эркина Вахидова. На основе стихотворения «Ona tilim o‘lmaydi» рассматриваются художественные средства, такие как аллюзия, обращение, повтор и драматизм. В статье освещается поэтическое выражение преданности родному языку, национальной гордости и духовных ценностей.

Ключевые слова: посвящённое стихотворение, поэтика, Эркин Вахидов, родной язык, аллюзия, драматизм, поэтическое мышление, национальная гордость, художественный образ, поэзия периода независимости.

Annotation: This article analyzes the poetics of dedication poems in Uzbek poetry and their significance in the literature of the independence period. The genre features, artistic-aesthetic functions, and role of dedication poems in poetic thinking are examined through the works of Erkin Vohidov. Based on the poem “Ona tilim o‘lmaydi,” the use of poetic devices such as allusion, address, repetition, and drammatism is analyzed. The article also highlights the poetic expression of devotion to the mother tongue, national pride, and spiritual values.

Keywords: dedication poem, poetics, Erkin Vohidov, mother tongue, allusion, drammatism, poetic thinking, national pride, artistic image, independence period poetry.

Adabiyot va she‘riyat azal-azaldan insoniyat ma‘naviyatining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Har bir xalqning tarixi, orzu-intilishlari va ruhiy dunyosi adabiyot orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, she‘riyat inson qalbining eng nozik kechinmalaini ta‘sirchan satrlar orqali ifodalash bilan qadrlidir. Shoirilar o‘z ijodi orqali muhabbat, vatanparvarlik, sadoqat, insoniylik kabi tuyg‘ularni kuylab, odamlarni ezgulikka chorlaydi. She‘riyat inson ruhiyatiga alohida ta‘sir qiladi. Ba‘zan oddiy bir she‘r inson qalbida unutilmas xissiyot uyg‘otadi. Shu sababli she‘rni qalb san‘ati deb atashadi. Bag‘ishlov she‘rlar ham, shu jumladan.

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati, avvalo, erkinlik, milliy o‘zlikni anglash, inson qadri, ruhiy uyg‘onish va vatanparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘irilganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda shoirlar ilgari mafkuraviy cheklovlar tufayli erkin ifoda eta olmagan mavzularni dadil yoritadilar, she‘r tilini, uslubini shaklini yangilashga intildilar. Poetik tafakkurning yangilashi – bu shoirning dunyoqarashidagi obrazlar tizimidagi ramz va timsollarni yoritishdagi so‘zga



bo'lgan estetik munosabatidagi o'zgarishdir. O'zbek adabiyoti ham buyuk ijodkorlarga boy. Shulardan biri Erkin Vohidovdir. Uning she'rlari xalq qalbidan chuqur joy olgan, she'rlaridagi Vatanga muhabbat, inson qadri masalasi va hayot falsafasi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Shuning bilan bir qatorda shoir she'rlari orasida bag'ishlov she'rlar alohida o'rin tutadi.

O'zbek she'riyatida bag'ishlov she'rlar muhim o'rin tutib kelgan. Bag'ishlov fors-tojik tilidan olingan so'z bo'lib, "bermoq" ma'nosini anglatadi. Bag'ishlov u yoki bu kishiga bag'ishlanuvchi she'r janri, ammo qasida yoki xat emas. "U janr sifatida o'zbek adabiyotiga ovrupo adabiyotidan kirib kelgan".¹ Bag'ishlovlarda ko'pchilik shoirlar janrni qayd etib qo'yishadi: "avvalo, asarning matniy(tashqi) qurilishi ham asosiy va yondosh matn(ramka unsurlari) farqlanadi. Misra va bandlarga bo'linish asosiy matnga taalluqli bo'lsa, sarlavha, janr qaydi, epigraf, bag'ishlov, she'r yozilgan sana va joy qaydi ramka unsurlaridandir".² Dastlab bag'ishlov she'rlar ilohiy ruhda yaratilgan bo'lib, payg'ambarlar va muqaddas siymolarga bag'ishlangan. Biz buyuk o'tmishimizni, payg'ambarlar va buyuk siymolarimizni bag'ishlov asarlar va she'rlar oqali taniymiz. Shuning uchun bag'ishlov she'rlarning poetik xususiyati muhimdir. Timsollar va ramzlarning poetik xususiyati va estetik tafakkuri keng bo'lmog'i lozim. Keyinchalik bu an'ana kengayib, inson, ona, vatan va millat kabi tushunchalarni ulug'lashga xizmat qila boshladi. Mustaqillik davrida esa bag'ishlov she'rlar yanada yangi mazmun kashf etdi. Zamonaviy adabiyotda bag'ishlov asarning muallif hurmati, e'zosi, minnatdorligi, muhabbati va h.k. tuyg'ular ifodasi sifatida biron bir shaxs, uning xotirasi, muayyan bir joy, muassasa, voqea-hodisa va shu kabilarga bag'ishlanishi, shu haqidagi qayd. Odatda, bag'ishlov asar sarlavhasidan keyinroq qayd etib qo'yiladi. Masalan, A. Oripovning "Arslon chorlagandi" she'riga "E. Vohidovga" tarzida yozilgan. Shuningdek, Erkin Vohidovning bag'ishlov she'rlari orasida aynan vatan mehri, milliy o'zlikni anglash masalalari yuqori planda aks ettiriladi. Uning "Ona tilim o'lmaydi" nomli she'ri ham tilga, millatga bo'lgan bag'ishlov she'r bo'lib, o'zbek she'riyatidagi eng yuksak milliy va ma'naviy ruh bilan sug'orilgan asarlardan biridir. Shoir bu she'ri orqali ona tilning boqiyliigi, xalqning ma'naviy qudrati hamda milliy o'zlikning abadiyligini chuqur poetik usulda ifodalagan. Asarda shoirning tilga bo'lgan muhabbati oddiy hissiyot emas, balki e'tiqod darajasiga ko'tarilgan. She'r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Notiq dedi:

Taqdir shul-

Bu

jahoniy

iroda,

Tillar yo'qolur butkul,

Bir til qolur dunyoda³

Ushbu parchada shoir avval "notiq" obrazini keltiradi. Notiq tillarning yo'qolishi tabiiy hol ekanini aytadi. Bu yerda "jahoniy iroda" birikmasi taqdir va zamon hukmini anglatadi. Shoir

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademyashr, 2017.

² Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.

³ Vohidov E. Saylanma asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2018.



til yo‘qolishini oddiy hodisa sifatida ko‘rsatayotgan fikrga qarshi ichki norozilikni tayyorlaydi. Misralardagi qisqa jumlarlar she‘rning dramatik ohangini kuchaytiradi. Keyingi misrada esa shoir “ey voiz” undalmasi orqali keskin murojaat qiladi:

Ey voiz pastga tushgin -

Bu gap chiqdi qayerdan?

Bu o‘rinda misrada poetik murojaat san‘ati juda kuchli qo‘llangan. “Ey voiz” deyilishi orqali shoir noto‘g‘ri fikr bildirayotgan kishiga qarshi dadil munosabat bildiradi. Buyruq ohangidagi “pastga tushgin” iborasi shoirning qat‘iy pozitsiyasini ko‘rsatadi. Bu yerda she‘rning pafosi yanada kuchayadi. Shoir uchun ona tilining yo‘qolishi mumkin degan fikr mutloqo qabul qilib bo‘lmaydigan qarashdir. She‘rning eng ta‘sirli poetik jihatlardan biri – tarixiy va jahon adabiyoti vakillarining tilga olinishi hisoblandi. **Navoiy bilan Pushkin**

Turib keldi qabrdan.

Ham darg‘azab

Ham hayron...

Bu o‘rinda shoir talmeh san‘atidan mahorat bilan foydalanilgan. Alisher Navoiy va Aleksandr Pushkin obrazlari milliy va jahon adabiyotining buyuk siymolari sifatida keltiriladi. Shoir go‘yo ularni qabrdan tiriltirib, ona tiliga bo‘lgan munosabatda guvoh qiladi. Bu esa she‘rga kuchli dramatism va badiiy ta‘sir bag‘ishlaydi. **“Ham dargazab, ham hayron”** satrlari orqali buyuk ijodkorlarning ham bunday fikrdan larzaga kelgani ifodalanadi. Shoir keyingi misralarda jahon adabiyotining ulkan vakillarini sanab o‘tadi:

Dante, Shiller va Bayron ,

Firdavsiy, Balzak, Tagor .

Bu o‘rinda poetika san‘atning yana bir muhim jihati ko‘rinadi: shoir turli millat va davr vakillarini bir safga qo‘yib, har bir xalqning buyukligi uning ona tili bilan bog‘liq ekanini ta‘kidlaydi. Dante Aligyeri, Fridrix Shiller, Jorj Gordon Bayron, Abulqosim Firdavsiy, Onore de Balzak va Rabindranat Tagor kabi ijodkorlarning nomi tilga olinishi she‘rning fikriy ko‘lamini kengaytiradi. Shoirning asosiy g‘oyasi shuki: buyuk adabiyot hamisha ona tili bilan yashaydi. She‘rning kulminatsion nuqtasi quyidagi satrlarda mujassam.

Va‘zingni qo‘y, birodar,

Sen aytganing bo‘lmaydi,

Barcha dedi barobar:

“Ona tilim o‘lmaydi”.

Bu misralarda takror san‘ati va jo‘shqin pafos she‘rning g‘oyaviy markaziga aylangan. “Ona tilim o‘lmaydi” jumlasini she‘r davomida qat‘iy e‘tiqod va milliy g‘urur ramzi sifatida yangraydi. Shoir tilini oddiy aloqa vositasi emas, balki xalqning ruhi va abadiy hayot deb biladi

Asarning poetikasi haqida gapirganda, uning ohangdorligi ham alohida ahamiyatga ega. Qisqa misralar, keskin murojaatlar va emotsional ohang she‘rga kuchli ta‘sirchanlik beradi. Erkin Vohidov sodda so‘zlar orqali katta falsafiy va milliy mazmun yaratadi. She‘rda dramatism, obrazlilik, talmeh, murojaat va takror san‘atlari uyg‘unlashib, yuksak badiiy mahorat namunasini yuzaga chiqargan.

She‘rning poetik xususiyatlari ham bag‘ishlov ruhiga xizmat qiladi. She‘rda murojaat, takror, talmeh va dramatism san‘atlari mahorat bilan yashashni anglatadi. “Ona tilim o‘lmaydi”



she'ri nafaqat ona tili haqidagi she'r, balki ona tiliga bag'ishlangan yuksak poetik ruhdagi bag'ishlov she'rdir. Unda milliy g'urur, tilga sadoqat va ma'naviy jasorat kuchli badiiy vositalar orqali ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning ushbu she'ri ona tilining boqiyliqi haqidagi ulkan badiiy manifestdir. Shoir ona tilini millatning yuragi, tarixi va ruhi sifatida ulug'laydi. She'rning poetik kuchi uning jo'shqin pafosi, tarixiy obazlari talmeh san'ati va hissiy ta'sirchanligida namoyon bo'ladi. Shu sababli bu asar o'zbek she'riyatining eng yuksak milliy ruhdagi durdonalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vohidov E. Saylanma asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2018.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
4. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
5. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
6. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
7. Rasulov A. She'riyat poetikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Mamajonov S. Hozirgi o'zbek she'riyati masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.